

MAKTUB JANRINING NAZARIY ASOSLARI

Dilshoda ERGASHEVA,

Samarqand davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

dilshodaabdusalomovna@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677208>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Xamsa” dostoni tarkibidagi mustaqil, ya’ni boshlanma, asosiy qism va tugallanmadan iborat maktublar adabiy maktub sifatida noma janridan farq qilinishi o‘z mulohazalarimiz doirasida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktub janri, noma janri, maktub va noma janrining farqlanishi, “Xamsa” dostonidagi maktublar, mustaqil maktub, nomustaqil maktub.*

Аннотация. *В данной статье в рамках наших рассуждений освещается различие между литературным письмом и жанром нома на примере самостоятельных писем в составе эпоса «Хамса», которые состоят из вступления, основной части и заключения.*

Ключевые слова: *эпистолярный жанр, жанр нома, различие между письмом и нома, письма в эпосе «Хамса», самостоятельное письмо, несамостоятельное письмо.*

Annotation. *This article explores, within the framework of our reflections, the distinction between literary letters and the noma genre, focusing on the independent letters found in the “Khamsa” epic, which consist of an introduction, main body, and conclusion.*

Key words: *epistolary genre, noma genre, distinction between letter and noma, letters in the epic “Khamsa”, independent letter, non-independent letter.*

O‘zbek adabiyoti tarixi sahifalariga nazar tashlar ekanmiz, uning madaniy va ma’naviy boyliklari qatorida asrlar osha shakllangan va uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan ko‘plab janrlar bilan tanishamiz. Shunday janrlardan biri maktub janri bo‘lib, maktub o‘zbek adabiyoti tarixida tugal bir janr hisoblanadi [7.29]. Jamiyat shakllanishi natijasida insonlar o‘rtasida muloqotning maktub, ya’ni xat shaklidagi ko‘rinishiga ham ehtiyoj sezila bordi. Bunday ehtiyoj yozuv paydo bo‘lmasidan avval turli xil detallar, belgilar asosida muloqotning yo‘lga qo‘yilishi dastlabki xabarnoma shaklida shakllana boshladi. Maktub janri haqida o‘zbek adabiyotshunosi professor, olim Nasimxon Rahmonovning O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi o‘quv qo‘llanmasida “Noma janri eski o‘zbek tilida “bildirguluk” so‘zi bilan ifodalangan” deya ta’kidlaydi [2.187].

Keyinchalik, ya’ni o‘rta asrlar adabiyotida bunday muloqot tarzi xat, noma, maktub, ruq‘a, arzadosht, savod istilohlari bilan atala boshlandi va maktublarga insho san’atining yetuk namunasi sifatida qaraldi. **Maktub va nomalar janr sifatida birbiridan tamoman farqlidir.** Navoiy maktub janriga befarq bo‘lmagani sababidan “Munshaot” asarini yaratdi. Ustozi Jomiyga bag‘ishlangan “Xamsat ul-mutahayyirin”

asarining 2-qismi ham forsiy tilda bitilgan ustoz-shogird yozishmalaridan tarkib topdi. Ma'naviy otasi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan “Masnaviy”si ham aslida maktub bo‘lib, bu asar ham “G‘aroyib us-sig‘ar” tarkibiga kiritildi.

Obidjon Karimovning “Mumtoz she‘riyati janrlari” kitobida noma janri haqida ma‘lumot berib, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si bilan bir qatorda Navoiyning Said Hasan Ardasherga yozgan she‘riy maktubi - “Masnaviy”sini ham sanab o‘tadi. Muallif yana shunday deydi: “Biror asar to‘qimasidagi nomalar katta asarlarda uchraydi. Bunday nomalar o‘sha asarlar qahramonlari nomidan bir-birlariga yozilgan bo‘ladi. Ularda ham qahramonning ruhiy kechinmalari, orzu-intilishlari ifodalanadi. Bunday nomalarning xususiyati shundan iboratki, ular qaysi asar to‘qimasida bo‘lsa, o‘sha asar vazni va qofiyalanishi usulida bitiladi. Bunday nomalarning eng go‘zal namunalarini Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida uchratamiz [4.39].

Umuman, noma, maktub istilohlarini Navoiygacha ham, Navoiy va undan keyingi badiiy adabiyotda ham bir-birining o‘rnida bimalol qo‘llaniluvchi sinonim so‘z sifatida kelishiga guvohmiz. Lekin, o‘zbek adabiyotida Xorazmiy “Muhabbatnoma” asari bilan alohida noma janriga asos solgach biz bu istilohlarni adabiy janr sifatida bir-birining o‘rnida istalgan paytda qo‘llashimiz qanchalik to‘g‘ri? Ko‘pchilik maktub janri deyilganida noma janrini tushunishadi. Sababi, bu so‘zlar ma‘nodosh so‘zlardir. Lekin ular janr tabiati jihatidan o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, boshqa-boshqa janrlardir. Noma janri deyilganda, o‘zbek adabiyotida, avvalo, aynan Xorazmiy boshlab bergan nomachilik an‘anasi tushuniladi.

Yuqoridagi qator fikr va ma‘lumotlarga asoslanib, biz badiiy asar tarkibida uchrovchi maktub janrining nazariy asoslarini quyidagicha belgiladik:

1. Maktub janri arab va fors adabiyotida shakllanib rivojlandi, keyinchalik Navoiy ijodi bilan bu janr o‘zbek adabiyotida o‘z takomilini topdi;

2. Maktub janrida adresat hamda adresantning mavjudligi va aynan o‘rtada maktub yetkazuvchining mavjud bo‘lishligi;

3. Maktublar badiiy asar tarkibida personajlar nutqi orqali ma‘lum maqsad uchun qo‘llaniluvchi, asarda badiiy detal vazifasini o‘tovchi, asar g‘oyasiga xizmat qiluvchi, muallif niyatini o‘quvchiga qiziqarli tarzda yetkazish yoki asar xulosasiga xizmat qilish uchun mo‘ljallangan ma‘lum janr ichida keluvchi kichik janr turi. Bu janr epik asar tarkibida ham, dostonlar tarkibida ham tarkibida ham kela oladi.

4. Maktub janri asar ichida kelganida o‘zining mustaqil boshlanmasi, asosiy mazmuni va tugallanmasidan iborat bo‘lganidagina uni janr sifatida ola olamiz. Kichik mazmundagi xabarlariga esa umumiy ma‘noda personajlar o‘rtasidagi muloqot,

yoʻzishma deb qarash toʻgʻri boʻladi. Shunga koʻra maxsus boshlanma, asosiy qism va tugallanmadan iborat maktublarni mustaqil maktublar, asar mazmunida maktub elementini saqlagan qisqa xabar mazmunidagi yoʻzishmalarni esa nomustaqil maktublar va bunday nomustaqil maktublar hajman kichik, boshlanma va tugallanmasi yoʻq boʻlgani bois ularni janr talabiga mos emas deb baholadik. Masalan, Layli va Majnun, Farhod va Shirinning, Iskandarning onasiga yozgan maktublarida alohida boshlanma va tugallanma hamda asosiy mazmun ifoda etiladi. “Qutadgʻu bilig” asarida ham mustaqil maktublar talaygina. Mustaqil maktub turini “Saddi Iskandariy” dostonida koʻrishimiz bilan birga ushbu asarda nomustaqil maktublar turini ham uchratamiz. Masalan, Iskandar Doroning qizi Ravshanakka shunday mazmunda xat yozadi: “Koʻp befoyda yigʻi-sigʻi qilma. Tangri hukmiga xursandlik bildirmoq - saodat gulidan bahramand boʻlmoq demakdir. Jahon bogʻidan gulbun yoʻqolgan boʻlsa, undan chiqqan durri pok sharaf tojini bezatgay” [1.786]. Bunday maktublarni biz janr sifatida baholay olmaganimiz bois ularni nomustaqil maktub deyish oʻrinlidir.

5. Badiiy asar tarkibida kelgan maktub oʻziga xos kompozitsion tarkibni saqlashi bilan birga asar maazmunida oʻzining alohida oʻrniga ham ega boʻlishi lozim. Yaʼni maktub asar tarkibidan yulib olingan taqdirda mazmunga jiddiy taʼsir etishi, maktub bilangina asar gʻoyasi tugal va tushunarli boʻlishi lozim. Masalan, “Saddi Iskandariy”da Iskandarning Ravshanakka yozgan xatini asar tarkibidan olib tashlash uning mazmunini tushunarsiz qilib qoʻymaydi. Lekin Iskandarning onasiga yozgan maktubini asar tarkibidan chiqarib tashlaganimizda dostonning xulosaviy mazmuniga, Navoiy Iskandarining falsafiy qarashlariga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

6. Maktub janr talabiga mos boʻlishi uchun u albatta asarda keltirilishicha qogʻozga yozilgan boʻlishi kerak. Oʻz soʻzini ogʻzaki aytib yuborish, elchilik munosabatlari bu janr xususiyatiga mos emas.

7. Xalq ogʻzaki ijodi namunalari tarkibidagi maktublarni tugal janr deya ololmaymiz. Masalan, “Ravshan” dostonida Zulxumorning Ravshanning ota-onasiga yozgan maktubi asar sujetida alohida eʼtiborga molik. Biroq folklor asarning jamoaviylik, anonimlik, ogʻzakilik xususiyatlarini hisobga olsak bunday asar tarkibidagi xatlarga maktub motivi sifatida qaragan maʼqulroq.

Xulosa oʻrnida maktub janri ehtiyoj yuzasidan shakllangan janr desak mubolagʻa boʻlmaydi. M.Jamolova “Oʻzbek adabiyotida noma janri” nomli kitobida “Qutadgʻu bilig” asaridagi yoʻzishmalarni nomachilik taraqqiyoti ildizlariga bogʻlab, asarda keltirilgan noma xat maʼnosidagi nomadir deya izohlaydi. Bundan koʻrinadiki, muallif noma deganda “Muhabbatnoma” silsilasidagi nomalarga chalgʻimaslikni eslatib oʻtmoqchi. “Sevgi birni oshiqqa, birni maʼshuqaga aylantiradi. Oʻrtada bulbulga xos



fig‘on boshlanadi. Mana shu holat tufayli sevishganlar o‘z dil rozlarini xat - noma orqali bir-birlariga bayon qiladilar” [3.13]. Ushbu fikrlardan ayon bo‘ladiki, maktub bu ikki tomon uchun ehtiyoj. Bu ehtiyojga juda ko‘p asarlarda murojaat etiladi. Asarlardagi maktub murojaatlarni esa noma janri emas, maktub janri deya alohidalash mumtoz adabiyotshunosligining galdagi vazifasidir. Mumtoz adabiyotda noma va maktubning hanuz bitta janr sifatida bir-birining o‘rnida qo‘llanilib kelishiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Maktub janri deyilganda mumtoz adabiyot nuqtayi nazaridan eng avval xayolimizga Navoiyning “Munshaoti” kelishi tabiiy. Chunki unda yuzdan ortiq maktub jamlangan va unda real ijtimoiy munosabatlar qalamga olingan. Shu sababdan maktub janri deyilganda faqatgina rasmiy-idoraviy uslubning badiiy ko‘rinishi, yani insho san‘ati namunasi tushuniladi. Lekin mumtoz adabiyot namunalari ichida personajlarning shunday yozishmalari borki, ular hajman yuz baytdan ortiqdir. Masalan, Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi obrazlarning maktublari. Agar ularni noma deya atasak, mumtoz adabiyotdagi yirik noma janri istilohini qo‘llagan bo‘lamiz. Shu boisdan ularni adabiy maktub deya baholagan, o‘rgangan ma‘qulroq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Saddi Iskandariy. T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991-yil.
2. Rahmonov N., O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, T.: - 2014-yil, 182-bet.
3. Jamolova M., “O‘zbek adabiyotida noma janri” 1992-yil, 13-bet.
4. Karimov O., Mumtoz she‘riyat janrlari, uslubiy qo‘llanma, Namangan - 2015. 39-bet.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. Т.: «Фан» нашриёти. 1983.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 2-том. Т.: «Фан» нашриёти. 1983.
7. Тоиров Н. Адабиёт тарихида мактуб жанри. Адабий мерос. №15. 1980.